



## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2022- yil yanvar-mart

### Dastlabki ma'lumotlar

➤ 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **16,0** birlikni tashkil qildi.

➤ 2022- yilning yanvar-martida **770** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,8** foizga ko'p demakdir.



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi



### 2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

**Savdo**  
25,3 %

**Sanoat**  
13,6 %

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**  
40,5 %

**Qurilish**  
6,2 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 312 ta, savdoda 195 ta, sanoatda 105 ta, qurilishda 48 ta, yashash va ovqatlanishda 26 ta, tashish va saqlashda 17 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari**

|   | O'lchov birligi | 2021- y. | 2022- y. | Farqi (+;-) |
|---|-----------------|----------|----------|-------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda        | 13630    | 14102    | 472         |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda        | 695      | 770      | 75          |
| <i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>                     |                 |          |          |             |
| YaHM  | %               | 59,2     | 57,5     | 1,7         |
| Sanoat  | %               | 31,9     | 30,9     | -1,0        |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi                      | %               | 99,4     | 99,2     | -0,2        |
| Investitsiya  | %               | 47,8     | 82,2     | 34,4        |
| Qurilish  | %               | 81,2     | 91,9     | 10,7        |
| Chakana savdo   | %               | 91,3     | 92,9     | 1,6         |
| Xizmatlar   | %               | 54,3     | 53,3     | -1,0        |
| Yuk tashish   | %               | 76,2     | 84,7     | 8,5         |
| Yuk aylanmasi   | %               | 84,3     | 76,0     | -8,3        |
| Yo'lovchi tashish   | %               | 97,7     | 97,6     | -0,1        |
| Yo'lovchi aylanmasi   | %               | 98,1     | 97,8     | -0,3        |
| Eksport   | %               | 83,0     | 61,3     | -21,7       |
| Import  | %               | 44,1     | 76,6     | 32,5        |



**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

**YaHM**  
57,5%

**Savdo**  
92,9%

**Sanoat**  
30,9%

**Qurilish**  
91,9%

**Investitsiya**  
82,2%

**Export**  
61,3%

**Xizmatlar**  
53,3%


**Import**  
76,6%

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

|                          | 2021- yil<br>yanvar-mart | 2022- yil<br>yanvar-mart | farqi<br>(+;-) |
|--------------------------|--------------------------|--------------------------|----------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>695</b>               | <b>770</b>               | <b>75</b>      |
| <i>shahar</i>            |                          |                          |                |
| Guliston                 | 183                      | 139                      | -44            |
| Shirin                   | 22                       | 14                       | -8             |
| Yangiyer                 | 28                       | 33                       | 5              |
| <i>tumanlar</i>          |                          |                          |                |
| Oqoltin                  | 41                       | 112                      | 71             |
| Boyovut                  | 62                       | 50                       | -12            |
| Sayxunobod               | 47                       | 53                       | 6              |
| Guliston                 | 46                       | 48                       | 2              |
| Sardoba                  | 45                       | 143                      | 98             |
| Mirzaobod                | 55                       | 57                       | 2              |
| Sirdaryo                 | 128                      | 95                       | -33            |
| Xovos                    | 38                       | 26                       | -12            |



### 2022- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da





2022- yilning yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sardoba tumani – 18,6 %, Guliston shahri – 18,1 %, Oqoltin tumani – 14,5 %, Sirdaryo tumani - 12,3 %, Mirzaobod tumani – 7,4 %, hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

|   | 2021- y. yanvar-<br>mart | 2022- y. yanvar-<br>mart | farq.<br>(+;-) |
|---|--------------------------|--------------------------|----------------|
| <b>Jami</b>   | <b>695</b>               | <b>770</b>               | <b>695</b>     |
| <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>           | 100                      | 312                      | 212,0          |
| <b>Sanoat</b>   | 157                      | 105                      | -52,0          |
| <b>Qurilish</b>   | 45                       | 48                       | 3,0            |
| <b>Savdo</b>  | 263                      | 195                      | -68,0          |
| <b>Tashish va saqlash</b>                                 | 10                       | 17                       | 7,0            |
| <b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>          | 38                       | 26                       | -12,0          |
| <b>Axborot va aloqa</b>                                   | 14                       | 12                       | -2,0           |
| <b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b> | 9                        | 8                        | -1,0           |
| <b>Boshqa faoliyat turlari</b>                            | 59                       | 47                       | -12,0          |

**Ma'lumot uchun:** 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

|                 | 2021-yil<br>yanvar-mart | 2022- yil<br>yanvar-mart | Farqi(+;-) |
|-----------------|-------------------------|--------------------------|------------|
| Sardoba tumani  | 45                      | 143                      | 98         |
| Guliston shahar | 183                     | 139                      | -44        |
| Oqoltin tumani  | 41                      | 112                      | 71         |
| Sirdaryo tumani | 128                     | 95                       | -33        |

2022-yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Sardoba tumani – 143 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2022- yil yanvar- mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 16,0 birlikni tashkil etdi.



**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra\***




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 41,4 birlik, Yangiyer shahrida 21,3 birlik, Shirin shahrida 17,4 birlik, Mirzaobod tumanida 16,3 birlik, Sirdaryo tumanida 15,2 birlik, Oqoltin tumanida 15,2 birlik, Sayxunobod tumanida 14,0 birlikni tashkil etgan. Xovos tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,2 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda)****Eng yuqori  
ko'rsatkich**

- **Guliston shahri**
- **41,4 birlik.**

**O'rtacha  
ko'rsatkich**

- **Oqoltin tumani**
- **15,2 birlik.**

**Eng past  
ko'rsatkich**

- **Xovos tumani**
- **7,2 birlik.**

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini  
pasayish dinamikasi, yanvar-mart  
holatiga ko'ra, % da**

2022- yilning yanvar- mart kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 57,5 %ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida 59,2 %).

**57,5 %****2022 y.**

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushi bilan izohlanadi.

**59,2 %****2021 y.**



**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da**

|                          | <b>Sanoat</b> | <b>Qurilish</b> | <b>Xizmatlar</b> | <b>Investitsiya</b> |
|--------------------------|---------------|-----------------|------------------|---------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>30,9</b>   | <b>91,9</b>     | <b>53,3</b>      | <b>82,2</b>         |
| <i>shahar</i>            |               |                 |                  |                     |
| Guliston                 | 54,6          | 98,6            | 32,3             | 26,8                |
| Shirin                   | 0,5           | 65,1            | 90,5             | 53,5                |
| Yangiyer                 | 62,3          | 100,0           | 77,5             | 91,4                |
| <i>tumanlar</i>          |               |                 |                  |                     |
| Oqoltin                  | 30,8          | 100,0           | 68,5             | 62,9                |
| Boyovut                  | 95,8          | 100,0           | 53,3             | 99,1                |
| Sayxunobod               | 76,5          | 100,0           | 67,3             | 79,5                |
| Guliston                 | 43,0          | 73,6            | 68,3             | 66,0                |
| Sardoba                  | 100,0         | 100,0           | 70,7             | 61,7                |
| Mirzaobod                | 35,9          | 91,5            | 78,6             | 84,2                |
| Sirdaryo                 | 55,6          | 86,9            | 74,8             | 37,2                |
| Xovos                    | 80,1          | 100,0           | 68,6             | 99,5                |


Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**  
**Sardoba (100,0 %),**  
**Boyovut (95,8 %),**  
**Xovos (80,1 %),**  
**Sayxunobod**  
**(76,5%), Yangiyer**  
**(62,2 %), va**  
**Guliston (54,6 %)**  
**tumanlarida.**


**Qurilishda-**  
**Oqoltin (100,0 %),**  
**Sardoba (100,0**  
**%), Yangiyer sh.**  
**(100,0 %),**  
**Sayxunobod**  
**(100,0 %),**  
**Boyovut (100,0**  
**%), va Guliston**  
**(98,6 %) shahrida.**

**Xizmatlarda-**  
**Shirin sh (90,5%),**  
**Yangiyer sh.**  
**(77,5%),**  
**Mirzaobod (78,6**  
**%), Sirdaryo (74,8**  
**%), Sardoba (70,7**  
**%) va Xovos (68,6**  
**%) tumanlarida.**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 40,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 61,3 % ni tashkil etdi.





**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sayxunobod tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 100,0 %, Xovos tumani- 100,0, Sardoba tumanida – 99,8 %, Boyovut tumanida – 58,2 %, Sirdaryo tumanida – 50,6 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – 0,0 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 104,5 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 76,6 % ini tashkil etdi.




2022-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod tumanida – 100 %, Sardoba tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 100 %, Xovos tumanida – 100,0 %, Shirin shahrida – 99,8 %, Oqoltin tumanida – 97,1 % ni. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo tumanida – 35,9 % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar - mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 870,5 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2022- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (297,5 mlrd. so'm), Guliston shahrida (134,8 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (130,2 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (82,1 mlrd. so'm), Sayxunobod tumanida (63,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (6,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 30,9 foizni tashkil etdi.



## 2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumanida (100 %), Boyovut tumanida (95,8 %), Xovos tumanida (80,1 %), Sayxunobod tumanida (76,5 %), Yangiyer shahrida (62,3 %) ni tashkil etdi. Shirin shahrida (0,5 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 863,7 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,1 foizni tashkil qildi.


**2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahrida (343,1 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (150,7 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (81,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (71,1 mlrd. so'm), Oqoltin tumani (45,4 mlrd. so'm), Guliston tumani (38,8 mlrd. so'm) va Sayxunobod tumani (36,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 485,6 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 91,9 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 95,1 foizni tashkil qildi.





2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (193,4 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (69,1 mlrd. so'm), Guliston tumanida (47,7 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (41,0 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (29,5 mlrd. so'm), Xovos tumanida (28,3 mlrd. so'm) hamda Boyovut tumanida (21,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

2022- yil yanvar- mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 606,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 53,3 % ini tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % ni tashkil qildi.




**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (171,1 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (114,8 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (67,8 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (40,4 mlrd. so'm), Xovos tumani (36,2 mlrd. so'm), Sayxunobod tumani (35,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 84,7 foizni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 104,9 foizni tashkil qildi.




2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 76,0 foizni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 101,7 foizni tashkil qildi.




2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,6 foizni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,8 foizni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 foizni tashkil qildi.








Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalardan tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **604** ta respondentlar ishtirok etdi.



## 2022- yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,1 % (61 ta), sanoatda – 12,7 % (71 ta), qurilishda – 13,1 % (79 ta) , savdoda – 42,1 % (254 ta), xizmatlar sohasida – 22,0 % (133 ta) ni tashkil etdi.


**2022- yil I- choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**
**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**
**Sanoat**
**Qurilish**
**Savdo**
**Xizmatlar**


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I- choragida, o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda 40,7 % ni, xizmatlarda 22,6 % ni, sanoatda 14,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi savdoda 42,9 % ni, xizmatlarda 22,6 % ni, qurilishda 13,6 % ni tashkil etdi.



## 2022- yil I- choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da


Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 41,7 %, xizmatlarda 21,5 %, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi 15,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi savdoda 40,9 %, xizmatlarda 23,8 %, qurilishda 14,7 % ni tashkil etdi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi**

Nashr uchun mas’ul: Sh.O‘razaliev.

Tel.: (67) 236-86-16

